

Muqaddima

O'z shahrimda turgan vaktimda uning atrofidagi sayilgoh joylarning birisiga o'rtoqlarim bilan sayohat qilishga muvaffaq bo'ldim. Biz o'sha yerni aylanib yurgan vaqtimizda ko'zimizga bir nuroniy, yoshi ham anchaga borib kartayib qolgan, lekin o'zi hali barvasta, tetik suyaklari ham susaymagan, hech bir a'zosi bo'shashmagan va xullas soch oqarishdan boshqa hech qarilik nishonasi bo'lmagan bir chol ko'rindi. Shunda mening u bilan gaplashishga havasim kelib, o'zimdanda o'zim uning pinjiga kirgim va u bilan yaqin bo'lgim kelib qoldi. Keyin o'rtoqlarim bilan unga qarab ravona bo'ldim. Unga yaqinlashgan chog'imizda, u bizdan avval salom berdi va juda dilga yoqar, ma'qul gaplardan gapira boshladi. Gapga kirishib ketibmiz, hatto gap aylanib, uning hol-ahvoli, yoshi, hunari, hattoki uning ismi, nasabi, shahrini bilishgacha ham borib yetdi.

Keyin u javob berib aytdi:

- Ismim Tirik, nasabimga kelsak, Uyg'oq o'g'liman. Shahrim Bayt ul-muqaddasdir. Hunarim jahon tevaragini sayohat qilish va hatto olamning hamma tomonlaridan xabardor bo'lib yurishdir. Shu sayohatlarimda yuzimni otam tomonga qaratganman. U tirikdir. Men barcha ilmlar kalidini undan olganman. U menga olam chegaralariga olib boradigan yo'llarni ko'rsatgan, sayohat qilish bilan hatto hamma iqlim uflari menga ko'rinib qoldi.

Ancha mahalgacha u bilan har xil ilm sohalarida masalalar aytishardik va ularning haqiqatini tushuntirib berishni so'rardik, nihoyat farosat ilmiga yetdik. Men uning bu ilmida shunchalik to'g'ri fikr yuritayotganinm ko'rib, juda ham hayratda qoldim.

Negaki, u biz kelib to'xtagan farosat ilmidan gap boshlab, mana shunday dedi:

- Farosat ilmi foydasi naqd bo'lgan ilmlardandir. Sen bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning o'zlari yashirib yurgan fe'lu atvorlarini bildiradi. Mana shu farosatning bildirishi natijasida o'z bilging bilan unga boylanib qolarsan, yo undan yuz o'girarsan. Farosat ilmi sening o'zingni aslingda bor bo'lgan instinktiv yaratilmalaring, o'zgartirilmagan tabiatlaringni ko'z o'ngingga keltirib qo'yadi. Agar senga farosatning tuzatuvchi qo'li tegsa, sen juda o'tkir bo'lib ketasan. Agar seni bir aldoqchi yo'ldan ozdirib, tuzog'iga tushira olsa, aldanasan.

Tevaragingdagi seni tashlab ketmaydigan bu kishilar sening yomon oshnalarindirlar. Sen ulardan osonlikcha salomat qutulmaysan, ular senga fitna qiladilar. Seni ular fitnasidan faqat to'la bir poklikka saqlab qola olishi mumkin, xolos.

Ammo mana shu sening oldingda turgan og'ayning esa, senn hayratga soluvchi, ezmadir. U yolg'onni to'qib chiqaradigan va qalbaki ishlarga usta bir uydirmachidir. U yo'l o'zigi berilmagan kishilarning senga keltirgan xabariga o'xshagan xabarlarni keltiradi. U xabarlarning haqiqatini uydirma bilan bulg'andi, rostni yolg'onga qorishtiradi. Tag'in u sening josusing va ayg'oqchingmi? Senga ma'lum bo'lmagan va sendan uzoq bo'lgan narsalarning xabarlarini senga u shu yo'l bilan keltiradi. Sen buning rostini yolg'ondan ajratish bilan, soxtadan chinni farq qilish bilan, xato pardalar ortidan to'g'rilarini saylab olish bilan sinalasan. Senga bunday qilishdan boshqa chora yo'q. Goho baxt qo'lingni tutib, adashuv muhitidan qutqaradi, goho uning bergan xabari seni hayratda qoldiradi, goho yolg'on seni aldaydi.

Mana bu o'ngingdagi oshnang esa, senn yo'ldan urishga juda ham chog'langandir. Agar u bezovta bo'lib qo'zg'alib qolsa, uni nasihat qilish bilan to'xtatib va yumshoqlik bilan bosib bo'lmaydi.

U xuddi quruq o'tinga tushgan o'tday yo bosib kelayotgan selday, yo mast tuyaday va yo qasd oladigan sherday, uning jinlovini tutib bo'lmaydi.

Mana bu so'lingdagi oshnang esa, o'lguday iflos, ochopat, vujudi bilan shahvatga berilgan kishidir. Uning qornini tuproqdan bo'lak hech narsa to'ldirolmaydi, ochligini gard, changdan bo'lak hech narsa yo'qota olmaydi. U o'lguday yaloqi, xo'randa, yutoqqan, mechkay va yamloqdir. U rosa ochiqtirib, keyin axlatga qo'yib yuborilgan to'ng'izga o'xshaydi.

Ey, miskin! Bu oshnalaringga sen shunday bog'lanib qolgansanki, ular va ularga o'xshaganlarning oyog'i hech ham tegmagan mamlakatga chiqib ketib, ulardan qutulmasang, boshqa hech narsa seni qutqarolmaydi. Lekin hozir ulardan ajralishning vaqti ham emas, qochib qutulishing ham qiyin. Endi qo'lingni ulardan uzun qilib yur. Sening hukming ular hukmidan ustun kelsin. Sen o'z tizgingni ular qo'lga tutqazib qo'yishdan yoki ularning o'zingga yetakchi bo'lishlaridan saqlan. Qaytangga ularga yaxshi tadbir qo'llab, ustun kelishga harakat qil. Shunda sen ularni to'g'ri yo'lga boshlagan bo'lasan. Agar sen qattiq tursang, ularni o'zningga qaratasan, ular esa seni o'zlariga qarata olmaydilar. Sen ularni egallab olasan, ular seni egallay olmaydilar. Bu o'rtoq va og'aynilarning haqida sening uchun eng yaxshi hiyla va tadbir shuki, laganbardorlik bilan muomala qiladigan bu kaltafahmga aldanishdan iborat g'azab aralash oshifalik va qiyin ishni uchratsang, u badxulq bilan bu kaltafahmning boshiga yaxshilab urib sindirasan, shunda uning martabasini juda pasaytirgan bo'lasan. Ammo mana bu ochko'zga u to tangriga katta qasam ichib, seni ishontirmagunigacha unga moyil ekanligingni bildirma. Agar u qasam ichib, inontirsa, inon, uning senga keltirayotgan xabari rost-yolg'on aralash bo'lsa ham eshitishdan qochma. Shunda sen uning xabarlaridan aniq va isbotlashga loyiq bo'lganini yo'qotmagan bo'lasan.

Shunday qilib, u chol, menga og'aynilarimdan gapirib, ularni menga tavsiflab berganida oshnalarim haqida bilgan narsalarini, rost, deb qabul qilishga shoshildim. Axir, men uni imtihon qila boshlaganimda, so'ragan kishim ular haqidagi xabarlarning to'g'risini menga aytib berdi-da!

Men mashaqqat tortib, ular bilan shug'ullana boshladim. Goh mening qo'lim ulardan, goh ularning qo'li mendan baland kelardi. To ajralish payti kelgunga qadar bu oshnalarim bilan yaxshi qo'shmichilik qilishim uchun tangridan yordam tilayman.

So'ngra bu choldan zo'r bir orzu va ishtiyoq bilan sayohatda rahnamolik qilishini istadim. U menga aytdi:

- Sen va senga o'xshash kishilar mening sayohatimdek sayohat qilmoqchi bo'lishsa, bunga yo'l berkdir. U sayohat yo'li senga va senga o'xshashlarga ham berkilgan. Yakkalanish senga baxt-saodat bag'ishlamasmikin?! Baxt uchun belgilangan vaqt bor; sen u vaqtdan oldin baxtga erisholmaysan. Sen ba'zi vaqtlar qo'nim aralash sayohat qilishga va ba'zi vaqtlar ular bilan birgalashib turishga ko'nik. Juda ishtiyoq bilan sayohatga chiqqaningda sen men bilan birga bo'lasan. Shunda sen ularni o'zing bilan birga olmay, tashlab ketarsan. Agar sen u oshnalariga moyil bo'lsang, ular tomonga borarsan; to ulardan yuz o'gira olishliging muyassar bo'lgungacha mendan aloqangni uzib turarsan.

Shunday qilib, gap har bir iqlim ahvolidan, to'la bilgan va eshitgan xabarlaridan so'rashga kelib yetdi. Shunda u menga aytdi:

- Yer chegarasi uchta: birn Xofiqoni deb aniqlangan chegaradir. Bu chegaraning haqiqati ma'lum. U haqda ketma-ket ochiq va ajoyib xabarlar kelib turadi. U ulug' narsalarni o'z ichiga olgan, yana ikkita ajoyib chegara bor: biri Kunbotar, boshqa biri Kunchiqardir".

Bularning har birida bittadan mamlakat bor. Bu ikkalasi oraliq'i bilan nnsanlar olami oraliq'ini ajratib turgan chegara bor. U chegaradan xudo tomonidan, asli yaratilishda o'tish layoqatini kasb qilgan, maxsus odamlardan tashqari, hech kim o'tolmaydi. Bu chegaralardan o'tishda turg'un hayot chashmasi yonida sharillab oqib turgan chashmada cho'milish foyda beradi.

Agar sayohatchi o'sha chashmaga yo'l topsa, unda yuvinib, toza bo'lsa va uning shirin suvidan ichsa, u vaqtda uning a'zolarida ajoyib bir quvvat paydo bo'lib, u bilan bu saholarni bosib o'tishga qodir bo'ladi. U Bahr ul-Muhitda cho'kmaydi. Qof tog'i uning yo'lini to'solmaydi. Zaboniya ham uni jahannamga uloqtirib yubora olmaydi. Biz buloqni yaxshilab tushuntirib berishni so'radik. U aytdi:

- Sen buni eshitgansan: Qutb tomondagi turgun qorong'uliklarning holi senga ma'lum. Quyosh har yili ma'lum muddatgacha uni yoritishga qodir bo'lolmaydi. U qorong'uliklarga kirgan va ulardan tortinmagan kishi, nurga to'lgan cheksiz bir bo'shliqqa yetib boradi. Shunda, unga, eng oldin, balandlikka qarab, daryo bo'lib sharillab oqayotgan chashma ko'rinadi. Kimki bu chashmada cho'milsa, suvda cho'kmay, yengil yuradi; tog' cho'qqilariga qiynalmay chiqib, nihoyat insoniyat olamndan ajralgan o'sha ikki chegaraning biriga erishadi. Mamlakatimiz Mag'rib chegarasidan uzoq bo'lgani uchun chegara haqida gapirib berishini so'radik. Shunda u aytdi:

- Mag'ribning eng uzoq joyida katta va issiq bir dengiz bor. Uni tangri kitobida "Aynan hamiatan" issiq chashma deb yuritiladi. Quyosh uning yaqiniga botadi. Bu dengiz cheki yo'q keng bir xarob mamlakatdan boshlanadi. U iqlimga turli tomondan g'ariblar kelib, uni obod qilib turadilar, xolos. Uning yerlarini doimiy qorong'ilik qoplab olgan, u yerga boradigan ko'chmanchilar quyosh botganda kerak bo'ladi, deb o'zlari bilan birga bir ozgina nur ham olib boradilar. Uning yerlari sho'r tuproqdir. Bu yerga kelib qo'nib qolganlar o'zlari uchun u yerni obod qilib, ariqlar qazyidilar, binolar qurib, ko'chatlar ekadilar. Boshqa birovlar imorat soladilar, keyin u binolar qulaydi, uni yana tiklashadi, yana buzadilar.

Bu yerning odamlari o'rtasida doimo janjal, hatto urishlar ham yuz berib turadi. Qaysi bir toifa zo'r kelsa, boshqa toifaning uylarini egallab oladi. Shu bilan birga bu zo'r kelganlar uy egalarini u yerdan majburiy ravishda ko'chirib yuboradilar. Ular o'z yerlarida qolishni istashsa ham, xo'rlanishlari bunga yo'l qo'ymaydi. Bularning odatlari shudir, bundan qaytmaydilar. Bu iqlimga har xil jonlilar keladi, unda o'simliklar o'sadi. Lekin bu yerga kelib qaror topgan jonlilar, bu yerning o'tlog'idan o'tlab, bahramand bo'lib yursa va suvidan ichsa, suratlaridan ancha uzoq (ya'ni o'xshamagan) bir tusga kirib qolib, o'z suratlari esa pardalanib qoladi. Shunda u mamlakatda insonni jonivar terisi bilan yopilganini va uning ustida qalin o'tlar bitishini, shu bilan birga, qolgan hamma narsalarning holi nima kechishini ko'rasan. Bu iqlim xarob bir jon bo'lib, yerlari sho'rob, serfitna, serjanjal, serg'alayondir. Agar istalsa, yaxshilik va xursandchilik uzoq joylardan olib kelinadi.

Mana shu iqlim bilan sizning iqlimlaringiz o'rtasida boshqa iqlimlar ham bor. Lekin osmon cheti kelib tutashgan joyiga yondosh mana shu iqlimning orqasida bir qancha narsalarda xuddi shu iqlimga o'xshash yana bir iqlim bor. Ularning biri g'arib va uzoq yerdan kelgan aholisidan boshqa hech kimsa yo'q, kimsasiz, bo'm-bo'sh joydir. Bulardan yana biri, garchi biz yuqorida aytib o'tgan nur derzasiga eng yaqin bo'lsa ham, nurni begona joydan o'g'irlyadigan iqlimdir. Bundan oldingi iqlim yerning asosi va qarorgohi bo'lganidek, keyingisi osmonlarning qarorgohidir. Lekin bu keyingi iqlimda obodonlik yo'lga qo'yilgan. Bu iqlimga kelib tushuvchilar orasida hech qanday kelishmovchilik yo'q. Har bir xalq uchun tayinlangan ma'lum o'lka bor. Ular ustiga hech kim g'olib bo'lib bostirib kirmaydi. Obod qilingan joyning bizga eng yaqin qismida yashovchi xalq kichik jussali, serharakat kishilardir. Ularning shaharlari esa sakkizta bo'ladi.

Unga yondashgan mamlakat ahllarining jussasi esa bulardan ham kichikroq, yurish-turishlari og'irroq bo'ladi. Ular yozuv-chizuv va nujum, nayrangbozliklar, tilsimlar, nozik sinoatlar, yuksak ishlarni biladilar va shular bilan shug'ullanishga harakat qiladilar. Ularning shaharlari to'qqiztadir. Bu mamlakat aholisi yoqimli, juda go'zal bo'ladi. Ular kayf-safoni juda ham yaxshi ko'rishadi, g'amdan ozodlar, turli na'malarni latif qilib chalishadi, uning turli-tuman kuylarinn bilishadi. Bir xotin ularga podshohlik qiladi. Ehson va yaxshilik ular uchun tabiiydir. Agar yomon narsa gapirilib qolinsa, undan nafratlanishadi. Bu xotin podshohning shaharlari sakkiztadir.

Unga tutashgan mamlakatda yashovchilarning jussalari katta, yuzlari suxsurdek; ulardagi xislatlardan biri shuki, ularning bir-birlari bilan tanishishlari juda ham foydasiz, yaqinlashish aziyatli bo'ladi. Ularning shaharlari beshtadir.

Unga yondashgan mamlakatda dunyoda yomonlik qiladigan xalqlar joylashgan. Ular bo'g'ish, qon to'kish, o'ldirish va oyoq-qo'l kesishni yaxshi ko'radilar, o'yin-kulgini sevadilar. Ularning kulfat keltiradigan qotil, uradigan, qirmiz yuzli, yo'ldan uruvchi podshoihi bor.

Bu qissa rivoyatchilarining aytishicha, bu hokim yuqorida aytganimiz chiroylik podshoh xotinga oshiq ekan, uning muhabbati buni oshifta qilib qo'ygan ekan. Ularning shaharlari yettitadir.

Unga yondashgan buyuk mamlakat ahllari iffat, adolat, hikmat va taqvoga berilgan, yaxshilikni qo'lga kiritish uchun har tomonga borishga tayyor, uzoq va yaqin barcha kishilarga shafqat ko'rsatishga e'tiqodlidirlar. Bilgan va bilmaganlariga yaxshilik ko'rsatuvchilardir. Nafosat va go'zallikda bularning tengi yo'q. Bularning ham shaharlari yettitadir.

Unga yondashgan mamlakat aholisi esa chuqur fikr yurituvchi, yomonlikka berilgan xalqdir. Agar yaxshilik qilsalar, uni juda ham uddalaydilar. Bular biron-bir toifa ustiga yurish qilishsa, shoshgan kishi kabi emas, balki aqlli kishi singari tadbir ko'radilar; qiladigan ishlarida sabrdan boshqa narsaga asoslanmaydilar. Ularning shaharlari yettitadir.

Undan keyin, keng o'lkali, ko'p imoratli katta bir mamlakat bor. Bu mamlakatning obod qiluvchilari ko'p. Xalqlari shaharlarda turishmaydi, saholarda yashashadi. Ularning turarjoylari o'n ikki bo'lakka bo'lingan quruq yerdir. Ularning yigirma sakkiz qo'noq joyi bor. Ularning hech qaysisi boshqalarning qo'nog'iga borishmaydi. Lekin old tomondagi uylardan biror toifa ko'chsa, ularning orqalaridan boshqa bir toifa borib, ularning joylarini darhol egallab oladi. Bundan oldingi mamlakatlarning xalqlari bu mamlakatga kelib-ketib turadilar.

Unga yana bir mamlakat yondashgan. Bu mamlakat ufqiga to ushbu vaqtgacha hech kim yetgan emas, payqagan ham emas. Unda na shaharlar bor, na qishloqlar.

Ko'z bilan ko'riladigan zotlar bu yerda turishmaydi. Bu yerni obod qilib turuvchilar ruhoniy farishtalardir. Hech bir inson u yerga tushmaydi. Bu mamlakatdan unga yondash bo'lgan mamlakatlardagilarga farmonlar tushib turadi. Buning orqasida obod joy yo'q. Olamning Mag'rib deb ataladigan chap tomondan bu ikki iqlimga yerlar va osmonlar tutashgan.

Agar undan Mashriq tomonga yuzlansang, senga bir iqlim ko'rinadi. Bu iqlimda na inson, na o't, na tosh bor. Faqatgina u keng bir sahro, suvi liq to'la dengiz, jilovlangan shamollar, alangalangan o'tdan iborat, xolos. Buni bosib o'tsang, yuksak tog'li, oqar daryolar, gizillagan shamollar, yomg'irli bulutlari mavjud bir joyga duch kelasan va u yerda oltin, kumush, qimmatli va arzon gavharlarning xil va turlariga ega bo'lasan. Lekin unda hech bir o'simlik yo'q.

Bu yerdan o'tgach, boshqa bir iqlimga borib qolasan. Bu iqlim yuqorida aytilgan joyda bo'lmagan narsalar bilan liq to'la. Unda yer bag'irlab o'sadigan o'simliklarning barcha turi, mevali va mevasiz. donli va urug'li daraxtlar bor. U yerda yuradigan va ovozi chiqaradigan jondorlarni ko'rmasan, Undan o'tib, boshqa bir iqlimga borib qolasan, tilsiz, suzuvchi, sudraluvchi, to'g'ri uchuvchi

va tug'iluvchi hayvonlarning hamma turlarini ko'rsan. Unda senga ulfat bo'ladigan kimsa bo'lmaydi. Unda ko'rgan va eshitganlarini o'qib olib, hamjinslaring olamiga qutulib chiqasan.

Agar Mashriq tomonga yo'nalsang, quyoshni shaytonning ikki shoxi o'rtasidan chiqishining shohidi bo'lasan. Chunki shaytonning ikkita shoxi bor: biri uchadi, biri yuradi. Mashriq tomonda yuradigan xalqlar ikki qabiladan iboratdir. Birining xulqi yirtqich hayvonsifat, boshqasining xulqi esa to'rt oyoqli uy hayvoni sifatidir. Bular ikkovi orasida doim janjallar bo'lib turadi.

Bularning ikkalasi Mashriqning so'l tomonidadir. Uchadigan shaytonlarning joylari esa Mashriqning o'ng tomondadir. Bular bir xil jinsdan yaratilmay, balki ularning har biri deyarlik bir-biridan ajratilgan holda, nodir ko'rinishda yaratilgandir. Ularning ba'zisi ikki xil, ba'zisi uch, boshqa ba'zisi to'rt xil qilib uchadigan inson va cho'chqa boshli ilon kabi yaratilgan. Ba'zisi yarim odam va boshqa ba'zisi bir kafti inson qo'liyu, boshqa hamma joylari hayvonlarning a'zosidan iborat. Rassomlar tasvirlaydigan suratlarining o'sha iqlimdan olib kelinganligi haqiqatdan uzoq emas. Bu iqlimda g'olib kelgan - podshoh bu yerda beshta chopar - aloqa yo'li tashkil qilgan. Shuningdek, u o'sha mamlakat uchun qurolxonalar qurgan va unga qurolli kishilar qo'ygan. Bular bu olam ahldan kimki u yerga borib qolsa, uni shartta tutib oladilar va o'zlariga yetgan barcha xabarlarini o'sha orqali isbotlaydilar. Keyin asirlarni mamlakat eshigini tutib turuvchi o'sha beshta choparning boshlig'iga topshiradilar. Asirlarda bekitib muhrlangan yozma xabarlar bo'ladi, lekin undan mudir ham xabardor bo'lolmaydi. Bu mudirning vazifasi maktublarning barchasini podshohga bildirish uchun xazinachiga yetkazishdir. Asirlarga esa mana shu xazinachi qarab turadi. Ularning qurollari esa, boshqa xazinachiga saqlash uchun topshiriladi. Sizning olamingizdan asir olingan insonlar, hayvonlar va boshqalar o'z suratlarini bilan o'sha turlarning biri bo'lib ko'payadilar.

Bu ikkala shox o'rtasidan bu iqlimingizga safar qiluvchi kishi insonlarning nafas yo'llaridan kirib, hatto ularning qabllarining qora nuqtasigacha boradi. Ammo bu ikki yuruvchi shoxning yirtqich hayvon suratdagisi insonga uni qiynaydigan bir aziyat yetishini kutib turadi. Agar aziyat yetsa, uni bo'rttiradi va insonga vahshiylik qilish, o'ldirish, quloq-burunni kesib sazoyi qilish, azob berib qiynash kabi yomon ishlarni yaxshi qilib ko'rsatadi. U inson vujudida jabr qilish, zulm va ezish hislarini uyg'otadi, uni shunga moyil qilib tarbiyalaydi. Lekin bu ikki shoxdan boshqa bir shox esa inson bolasiga yomonlik, man qilingan ish, fisqu fujurlarni yaxshi qilib ko'rsatadi va shunga qiziqtiradi. Hatto uning yelkasiga minib oladi. Qiziqtirishda davom etib, nihoyat uni o'sha tomonga tortadi.

Ammo u uchadigan shox esa, ko'zi bilan ko'rmaganni yolg'ondan ko'rdim, deb aldaydi, yaratilgan narsalarga ibodat qilishni tasvirlab beradi. Insonning diliga, o'lgandan keyin qaytib tirilish yo'q, oqibati yomonlik va yaxshilikni ko'rish ham yo'q, bu mamlakatni yaratuvchisi ham yo'q, deb inson qalbini qoralaydi, fikrini buzadi.

Bu ikkala shoxdan buyog'ini iqlimingiz ortidagi iqlim chegarasiga yaqin yer farishtalari obod qilishadi, farishtalarning yo'l ko'rsatishi bilan u toifa to'g'ri yo'lni topib, dinsizlarning yo'lidan chiqadilar, pok ruhlilar axloqiga ega bo'ladilar. Bular agar insonlar bilan aralashsalar, ularga yomon xulqlarni o'rgatmaydilar, yo'ldan ozdirmaydilar, insonlarning pok bo'lishlariga yordam beradilar. Ular jin va hinlardir. Kimki ushbu iqlim orqasiga yetsa, yer farishtalari turadigan bpr iqlimga boradi. Bular ikki tabaqaga bo'linadi: biri o'ng tomondagisi bo'lib, bu biluvchi va buyruq beruvchidir. Ro'baro'sidagi, chap tomonda turuvchi tabaqa esa, buyruqni qabul qiluvchiga ishlovchilardir. Bu ikkala tabaqa goh jin va inson iqlimlariga, pastga tushadilar, goh ko'kka ko'tariladilar. Aytishlaricha, "xafazayi kiromi kotibiyn" shulardan emish. Bulardan o'ngda o'tirib kuzatuvchisi esa, buyruq beruvchilardan bo'lib, yozdirish ishi shularning qo'lida. Chapda o'tirib kuzatuvchisi ishlovchilardan bo'lib, yozish ishi shuning qo'lida. Bu iqlimga o'tishga yo'l topa olgan kishi osmonning narigi tomonidan qutulib chiqadi. Shundan keyin u eng oldingi yaratilganlarni ko'radi. Ularning barchasi itoat qiladigan yagona podshohlari bor. Chegaralarning birinchisida ulug' podshohlarining xizmatkorlari unga yaqinlashtiradigan amallarni qilib turadilar. Ular ochko'zlik, zinqnalik, shahvoniy ish, zulm va hasad qilish hamda yalqovlik qilishga moyillik qilmaydigan pokiza zotlardir. Ular bu mamlakat atroflarini obod qilish uchun qo'yilgan vakillardir. Ular o'sha yerda har narsadan ogoh bo'lib turadilar.

Bular madaniy bo'lib, shaharlarda, baland-baland ko'shklarda, go'zal binolarda turishadi.

Bu yerning tuprog'i iqlimingiz tuprog'iga o'xshamaydi. Bu mamlakat oyna, yoqut va shunga o'xshagan narsalardan ham qattiqroqdir. Ularning umrlari uzun va o'lim ulardan yiroqlashtirilgan. Ular eng uzoq umr ko'radilar. Ularning vazifalari podshohlari bilan juda yaqin va juda yaxshi aralashish bo'lib, ular shoh majlisiga doim tayyor bo'lib turadilar. Podshoh xizmatini qilishni o'zlariga xorlik deb bilishmaydi va qilayotgan ishlarini o'zgartirishmaydi. Ularning o'zlari shohga yaqin turishni istashadi. Shoh oliy majlisining davrasida o'tiradilar va podshohdan ajralmaydigan bo'lib, uning yuziga qarash bilan baxtga erishadilar. Bularning tabiatlari go'zallik va zehn o'tkirligi, donolik, rostgo'ylik bilan yoqimlilik va yetuklik bilan ziynatlangan. Ularning har biri uchun alohida-alohida joy ajratilgan, darajalarn ham tayin, turar-joylari ham ma'lum chegaralar bilan belgilanib qo'yilgan. Ular bu darajalarda turib, bir-birlarining o'rinlarini tortib olmaydilar va boshqalarning ishlariga aralashmaydilar ham. Ularning har biri boshqasidan yuqori bo'lib, o'zganing ishiga aralashmaydi, o'zini undan kamsitishni ep ko'rmaydi.

Podshohning bitta eng yaqin kishisi bo'lib, u ham bo'lsa ularning otasidir. U kishilar o'sha otaning farzandi va nevaralaridir. Bu ota orqali ular podshohning buyruq va farmonlarini olib turadilar. Ularning ajoyib xususiyatlaridan biri shuki, ularning tabiatlari pir bo'lib, tez keksayishmaydi.

Ularning otasi esa, garchi ulardan kattaroq bo'lsa-da, ulardan ham kuchga to'la, ko'rinishi ham yoshroqdir. Ularning hammalari sahroda turishadi. Hamma narsa yetarli, kamchiliklari yo'q. Podshohlari esa, ulardan ham ehtiyojsizdir. Kimki uni biror irqqa taalluqli deb bilsa, u adashadi, kimki unga loyiq maqto'vlar bilan maqtay olaman desa, bekorlarni aytibdi. Uning vasfni qilishga kishining kuchi yetmaydi. U biror narsaga o'xshatilishdan uzoq. Chunki o'xshatish bo'lak bir narsaga qiyoslash bilan bo'ladi. Unda bo'lsa, bunday a'zolar yo'q. Shu sababdan butun vujudi o'zining husni uchun chehra, saxiyiligi uchun qo'ldir. Uning husni barcha go'zalliklarni yo'q qilib yuboradigan darajada bo'lib, uning karami oldida barcha nafis karamlar chippakka chiqadi. Agar bu podshoh atrofida xizmatda bo'ladiganlarning birortasi fikr qilib, uni ko'raman desa, hasratida ko'zdan mahrum bo'ladi va shu ko'yicha maqsadga yetmay qaytadi. Uning jamoli o'z husnini pardasidir, oshkoraligi uning yashirinligiga, nur sochishi bekikligiga sababdir. Xuddi quyosh ozroq niqoblanganda, ochilishi ko'proq talab qilinganidaydir.

Quyosh nuriga sinchiklab qaramoqchi bo'linganda, nuri nuriga parda bo'lib qoladi. Bu podshoh o'z kishilariga ko'rinib turadi, ularga o'zini ko'rsatishga baxillik qilmaydi. Kimki uni ko'ra olmas ekan, buni o'z mulohazasining yetishmasligidan deb bilsin. U ko'p yaxshilik, xayr-ehson qiladigan, mo'l narsa ato qiladigan dargohi keng, barchaga baravardir. Kimki uning jamolidan bir ozgina bahramand bo'lsa, uni har holda taniydi. Bir ko'z ochnb yumguncha ham undan ko'zini ololmaydi. Agar insonlar u tomonga hijrat qilib tursalar, uning fazilatlaridan o'zlariga kerakligini olishadi va bu iqlimingiz matoini bir pul qilishadi. Mabodo, uning huzuridan qaytishsa, o'zlarining xohishiga qarab emas, balki majburan qaytishadi. Nihoyat Uyg'oq o'g'li Tirik qo'shib qo'ydi:

- Agar, seni uyg'otish maqsadida qilgan bu hikoyam meni unga yaqinlashtirmaganda edi, men bu hikoya bilan mashg'ul bo'lmasdim va senga bu so'zlarni gapirib o'tirmasdim. Istanang menga ergash, seni unga olib borayin.

Qush Hikoyati

Mening qayg'ularimdan bir ozini eshitishga loyiq darajada quloq tutadigan birodarlarimdan birortasi bormikin?! Agar menga o'rtog'liq qilib, u shundan qilganida mening ba'zi og'irliklarimni ko'tarishga sherik bo'lardi. Shunda haqiqatan ham chin do'st shod va g'amgin paytlarida o'z dilini kuduratdan tozalab, sof do'stlikni saqlab qololgan hisoblanardi.

Shundayligingni bilmay turib men seni qanday qilib ko'nglida kiri yo'q, xolis do'st deya olaman?

Agar do'stlik savdo-sotiqqa o'xshab, ehtiyoj talabiga qarab istalsa, unga zarurat bo'lmaganda nazarga ilinmay tark etilsa, unda qanday do'stlik bo'ladi? Do'st o'z do'stini biron kulfat yuz bergandan o'zga vaqtda hech ziyorat qilmasa, zarur bo'lib qolgandagina eslab, boshqa vaqt eslamasa, shu ham do'stlik bo'ldimi, axir?

Ey xudo, mayli, axir ilohiy yaqinlik birlashtirgan, oralarini oliy mehribonlik yaqinlashtirgan do'stlar bor-ku! Ular haqiqatga tik qaraydilar, ko'ngildan ifloslik va shak-shubha zangini ketkazadilar, ularni bir-birlari bilan, xolisanlilloh, do'stlikdan boshqa hech narsa birlashtirmagan.

Ey, birodarlar! Haqiqatni yoyinglar, bahamjihat bo'linglar. Ba'zilaringizni ba'zi narsalarni o'rganishlaring va ba'zilaringizni ba'zi narsalar bilan kamol topishlaring uchun orangizdagi har bir kishi o'z birodariga nisbatan dilidagi pardani xolis ochib tashlasin.

Ey, haqiqiy birodarlar! Kirpilar boshini ichiga tortgani kabi, siz ham boshingizni ichingizga torting. Botiningizni yuzaga chiqaring, zohiringizni esa, ichingizga oling. Xudo haqqi, botiningiz ravshan ko'rinib turibdi-yu, biroq siringiz yashirin.

Ey, haqiqiy birodarlar! Ilonga o'xshab o'z po'stlaringizdan chnqinglar va qurtlar sudralib yurgandek sudralinglar. Dushmanga qarshi quroli dumida bo'lgan chiyondek bo'linglar. Chunkn agar shayton odamlarni orqadan alday olmasa, u hech qachon aldasha muiyassar bo'la olmaydi.

Ajal zahrini yutinglar, yashayajaksiz; o'limni sevinglar, tirik bo'lajaksiz. Qo'nadngan uya tutmay, uchib yuringlar, chunki qushlarning ovlanadigan joylari inlaridir. Agar qanotsizlik parvoz qilishingizga to'sqinlik qilsa, qanot o'g'irlanglar, maqsadga yetasiz. Uchishga kim mohir bo'lsa, o'sha eng yaxshi fazilatli sanaladi. Qizitilgan toshlarni yutadigan tuyaqush bo'linglar. Qattiq suyaklarni yutib yuboradigan ilondek, olovning ichida dadil yuradigan samandardek, yorug'liqqa chiqmaydigan ko'rshapalakdek bo'ling, chunki parrandalarning eng yaxshisi ko'rshapalakdir.

Ey haqiqiy birodarlar! Odamlarning botiri kelajakdagi mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolga yetishdan chetlangan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir.

Ey haqiqiy birodarlar! Farishta yomonlikka yuz tutsa yoki hayvonlar xunuk ish qilsa, ajablannsh kerak emas. Mabodo agar insonning vujudi aql bilan munavvar bo'la turib, shahvatlarga berilsayu bu yo'lda o'z insonligini yo'qotib, toatini tark qilgan bo'lsa, bunday insonga ajablanish kerak bo'ladi. O'lay agar, hech shak-shubha yo'qki, odam farishtasi shahvoniy hislarni yo'qotishda sobitqadamdir. Uning oyoqlari jimoga yurmaydi. Agar kishidagi insoniylikning yomonlikka tortadigan shahvatni qaytarishga qurbi yetmasa, u hayvondan ham past turadi.

Endi so'z boshiga qaytaman. Buni men (Ibn Snno - A. I.) aytyapman.

Bir guruh ovchilar paydo bo'lib, tuzoqlar qo'yib, to'rlarini yoyishdi. Keyin ularga don sepib, o'zlari o'tlar orasida bekinib turishdi. Bu vaqtda men parrandalar galasi orasida edim. Shunda ovchilar bizni ko'rib qolib, qushlarga o'xshab hushtak chalib chaqirishdi. Biz u yerda juda ko'p donlarni va o'zimizga o'xshash qushlarni ko'rdik. Ko'nglimizda bunda biron yomonlik bor, deb shubha ham tug'ilmadi, ikkilanib, u yerga borishdan tortinib ham turmadik.

Biz o'sha qushlar tomonga borishga shoshildik va hammamiz - to'pimiz bilan birga tuzoqqa tushdik. Shu paytda halqalar bo'yinimizga o'ralishib, to'rlar qanotlarimizga yopishar, oyoqlarimizga esa, tuzoqlar ilashar edi. Qutulishga shuncha harakat qilib ko'rsak ham, lekin baribir urinishimiz zoye ketdi, qiyinchilikdan boshqa narsani orttirmadi. Halok bo'lishga ko'zimiz yetdi. O'zimiz bilan o'zimiz ovora bo'lib, og'ayinlarimiz holidan xabar olish va qayg'urishni ham unutilib qo'yibmiz. Hammamiz bir lahza qutulish yo'lida hiylalar topishga bosh qotirdik. Hatto bu haqda o'ylab, o'zimizning tuzoqda ekanligimiz ham esimizdan chiqib ketibdi.

Tuzoqqa ko'nikib, qafaslarda orom oldik. Bir kuni to'r orasidan bir gala qushlarni ko'rib qoldim. Ular bosh va qanotlarini to'rdan xalos etib, qafaslardan qutulib uchib kelishar, oyoqlarida esa hamon tuzoq qoldiqlari osilib turar edi. Lekin bu qoldiqlar uchishga najot topishga to'sqinlik qilmas edi. To'sqinlik qilmaganiga qaramay, uchib qutulish oson emasdi, tinchgina hayot kechirtirmas ham edi. Ana shu holat unutilgan narsamni yodimga tushirdi. Shu bilan birga ko'nikib qolgan narsaning yomonligini ham ko'rsatdi. Bo'shayman, deb urinaverib, urinaverib, juda tavbamga tayandim hatto, hasratu nadomatdan kuyib, o'lay dedim. Keyin men, zora ular menga yaqinroq keilib rohat topish yo'lini ko'rsatsalar, degan umidda qafas ichida turib ularni chaqirdim. Axir qafasda uzoq turish meni qiynab yubordi-da. Ular ovchilarning hiylalarini eslashib, qaytanga mendan battar qochdilar. Keyin men ularga qadimgi do'stligimiz va hammamiz bir guruhdanligimizni aytgach, ularning dillarida yana shubha paydo bo'ldi. Men esa qasam ichib, gapimning rostligiga ularni ishontirdim. Shunday qilganimdan keyingina ular mening oldimga kelishdi. Men ulardan hol-ahvol so'ragan edim, shunda men muhtalo bo'lgan narsaga ular ham muhtalo bo'lganliklarini, keyin umid uzib shu uqubatga ko'nikib qolganliklarini gapirib berishdi. So'ngra menga ham yordam qilishdi; bo'yinimdan tuzoq, qanotlarimdan to'rni uzoqlashtirishdi, qafas eshigini ochishdi. Keyin menga: "G'animat bilib, qutulib qol!" b' b' deyishdi. Men ulardan oyoqlarimni halqalardan ozod qilishlarini so'radim. Ular: "Agar biz bundan ishga qodir bo'lganimizda, avval o'z oyog'imizni bo'shatib olgan bo'lardik, kasal tabib kasalni davolay olarmidi",- deyishdi. Qafasdan chiqib, uchmoqchi bo'ldim. Ular menga shunday deyishdi: "Sening oldingda juda ko'p buq'alar bor. Agar u buq'alar ustidan bo'linib-bo'linib o'tmasak, qiyinchilikdan qutulolmaymiz, bizning izimizdan uch, biz seni qutqaramiz va senga to'g'ri yo'lni ko'rsatib yuboramiz".

Sero't, serhosil vodiy, yo'g'-e, aksincha, quruq xarob vodiydagi bir yuksak tog'ning ikki baland cho'qqisi oralig'idan uchdik. Hatto vodiy orqamizda qolib, haligi tog' cho'qqisiga yetdik. Birdan oldimizga qarasaq, yana sakkizta baland tog'lar turibdi, bularning cho'qqilarini ko'z ilg'amas edi. Shunda oramizdagi ba'zilar, bu tog'lardan tezroq, shoshilib o'tib olmasak, biz hech omonlik topolmaymiz, deyishdi. Shundan keyin tez uchib, olti cho'qqidan o'tib, yettinchisiga yetdik. Yettinchi tog' chegarasiga kirgach, ba'zi qushlar, hech toqat qilib bo'lmayapti-ku, orom olasizlarmi-yo'qmi?! Axir bu qiyinchiliklar tinkamizni quritdi-ku. Biz bilan dushmanlarimiz orasi uzoq bo'lib qoldi, badanlarimizga ham bir oz orom berishimiz kerak-ku, axir, dam olib-dam olib uchish to'xtovsiz uchishdan ko'ra najotga tezroq yetkazadi, deyishdi.

Shunday qilib, o'sha tog' cho'qqisiga kelib qo'ndik. Bunday qarasaq, ko'z oldimizda hammayog'i ko'm-ko'k, obod, mevazor,

anhorlar oqib turgan bog'lar turibdi. Uning ne'matlari o'z ko'rinishi bilan ko'zlarni qamashtirib, fikrlarni hayratda qoldiradi. Quloqlaringga ashula kuylari, mungli nag'malar eshitiladi; na o'tkir mushkda va na anbarda bo'lmaydigan hidlar dimog'ingga urilib turadi. Biz u bog' mevalaridan yedik, suvlaridan ichdik va to hordiq chiqquncha shu yerda turdik. Ba'zilar, shoshilaylik, chunki xotirjamlikdek aldanish, ehtiyotkorlikdek qutulish yo'li va shubha qilishdek mahkam ko'rg'on yo'q, deyishdi. Bu joyda g'afatda qolib, uzoq turib qoldik, orqamizdan dushmanlar izma-iz biz turgan joyni axtarib kelyapti. Garchi bu joyda turish biz uchun yaxshi bo'lsa ham, lekin bu yerda salomat qolishimiz qiyin. Shuning uchun, kelinglar, bu buq'ani tashlab, tezroq bu yerdan ketaylik.

Shunday qilib, hammamiz uchishga qaror qildik. U yerdan uchib, sakkizinchi toqqa yetib keldik. Bundan qarasam, cho'qqisi osmon bag'rini yorib kirib ketgan baland tog', uning tevaragida qushlar uchib yuribdi. Men umrimda bunday xushnavo, go'zal, xushsurat, dilkash qushlarni uchratmaganman. Ularning yoniga qo'nganimizdan keyin, biz ilgari hech kimdan ko'rmagan va eshitmagan ehson, lutf va odamgarchilikni ko'rdik, samimiy yordamni his qildik. Hatto biz umr bo'yi urinsak ham, boringki, umrimizga bir necha bor umr qo'shib berilganda ham, ularning bizga bergan yordamlarining kichik bir ulushini bajo keltirolmaymiz. Ular bilan tanishib bo'lgach, biz ularni o'zimizga azob berayotgan voqeadan ogoh qildik. Shunda ulardan biri so'zimizga e'tibor berib, "Mana shu tog'ning orqasida bir shahar bor. O'sha yerda buyuk podshoh istiqomat qiladi. Har bir zulmdiyda unga sig'insa va tavakkul qilsa; uning qudrat va madadi bilan baxtsizlik undan yiroqlashadi",- dedi. Biz ularning ishorasiga binoan podshoh shahriga ravona bo'ldik. Nihoyat uning dargohiga qo'nub, uning ruxsatiga muntazir bo'lib turdik. Keyin kirishga ruxsat berildi. Bizni uning qasriga olib kirdilar. Bundan qarasak, biz shunday saroyga tushib qolibmizki, uning kengligi va go'zalligini tavsiflab berish qiyin. U sahndan o'tganimizdan keyin keng va yaraqlagan yana bir sahn darvozasi ochildi. Bu sahnni ko'rganimizda bundan oldingi ko'rgan sahnimiz ham ancha torroq, hatto kichikroq ham ko'rindi. Nihoyat biz podshoh hujrasiga yetdik. Parda ko'tarilib, podshoh jamoliga ko'zimiz tushgach, unga ko'nglimiz tushib, hammamiz hushimizdan ketib, shikoyat qilishga ham qodir bo'lmay qoldik. Haytovur uning o'zi bizning dardimizdan ogoh bo'lib, o'z lutfi bilan hushimizga keltirdi. Nihoyat u bilan gaplashishga jur'at etib, unga o'z kechmishlarimizni gapirib berdik. Keyin u aytdi:

- Oyoqlaringizdagi tuzoqni qo'rgan kishidan bo'lak hech kim yecholmaydi. Men ularga bir elchi yuboraman. U elchi sizlarni tuzoqdan qutqarishni ovchidan iltimos qiladi. Gap tamom. Shodu xurram bo'lib tarqalinglar.

Ana shundan so'ng biz elchi bilan birga yo'lga tushdik.

Birodarlarni podshohning go'zalligi va uning dargohi haqida hikoya qilib berishimni mendan qattiq turib talab qildilar. Men uning vasfini qisqacha iboratlar bilan to'la-to'kis ta'riflab beraman: u podshoh shunday bir podshohki, qachon sen dilingga zavol aralashmagan bir jamolni, kamchiligi bo'lmagan bir kamolni keltirsang, undagi bor jamol va kamolga duch kelgan bo'lasan. Haqiqatan ham har bir kamolot unda paydo, har bir nuqson, garchi majoziy bo'lsa ham, undan uzoq. Kamolning hammasi uning husni uchun yuz, ehsoni uchun qo'ldir. Kimki unga xizmat qilsa, u eng oliy baxtga erishadi. Kimki undan uzoqlashsa, dunyo va oxiratda ziyon ko'radi.

Mening qanchalar birodarlarim hikoyamni eshitib:

- Sening esing og'ib qolibdi,- deyishdi.- Aqlu hushing uchib, devona bo'lib qolibsang. Xudo haqqi, sen uchmagan ekansan, balki sening aqling uchgan ekan, sen ovlanmagan ekansan, balki sening aqlu hushing ovlangan ekan. Kishilar qachon uchganu, qush qachon gapirgan! Go'yo mizojingda safro g'alaba qilganga, dimog'ingni quruqlik egallab olganga o'xshaydi. Sen endi devpechak qaynatmasini ichib tur, suchuk suvli issiq hammomga vaqt-vaqti bilan tushib tur, nilufar yog'ini hidlab tur. Keyin yaxshi ovqatlarni tanlab, shoshilmay yegin, jinsiy aloqadan, uyqusizlikdan saqlan va kamroq fikrla. Axir biz ilgari sening aqlliligingni ko'rgan, sening fatonat va zakovatingga qoyil qolgan edik. Ko'nglimizdan tangring o'zi ogohdir. Endi sening bu ahvolingni ko'rib, biz sendan ranjidik. Ahvolingga xalal yetgani sababli bizning ahvolimizga ham xalal yetdi.

Ularning gaplari qancha ko'p bo'lsa, foydasi shuncha oz edi; so'zning eng yomoni amal qilinmay zoye ketganidir. Tangridan madad, odamlardan aybga buyurmaslikni so'rayman. Undan boshqaga ishongan kishi oxiratda ham, undan avval ham zarar ko'radi. Zulm qilganlar kelgusida qayerga ag'darilishlarini bilishadi.

Salomon Va Ibsol

O'tgan zamonlarda Salomon degan kishining bir ota va bir onadan tug'ishgan ukasi bor edi. Salomon ukasini o'z o'g'liday tarbiyaladi va yurish-turishida nojo'yalik topmay, unga odamlar biladigan va o'rgatadigan hamma fanlardan ta'lim berdi. Tangri unga go'zal ko'rk va shaydoyi husn berdi. Bola balog'atga yetgach, shayton yangasining ko'zini unga burib yubordi, ketidan ko'nglini ham unga bog'ladi. Xotin unga oshiq bo'lib qoldiyu, o'z dardini nchiga sig'dirishga chiday olmadi.

Bnr kuni Salomonga xotini shunday dedi:

- Ukang Ibsol, so'zsiz, olijanob bola, u senga o'z farzandingdek yaqin. Uning dinu diyonati ustivor, yaxshi xulqli qilib yetishtirding. Endi, uni mening oldimda, bolalaringga qo'shib qo'ygin, ularga xulqu odob va yaxshi fe'l-atvorlardan o'rgatsin.

Salomon, xo'b, sen aytganday bo'ladi, dedi.

Keyin Salomon Ibsolga har bir payshanba va juma kunlari yanga qasrga kelib turishni tayinladi. Bunda Ibsol biror shumlik borligini sezib qoladi va Salomonga shunday deydi:

- E, aka, men qayoqdayu, qasrdagi xotinlar qayoqda! Men bu ishni ko'ngildagidek bajo keltirolmayman. Bolalaringga o'zing bosh bo'lib, nazorat qilib tursang, zarur bo'lganda men ulardan xabar olib tursam, bu durustroq va yaxshiroq bo'lardi.

Ukasining bu gaplarini eshitgan Salomon ukasiga:

- Bu gaping durustku-ya, lekin yangang sen bilan xursand bo'ladi,- dedi,- ochiq yuz bilan uning oldiga kirib tursang, u buni xush ko'radi. Shunday qilsang, senga u yaxshi iltifotlar qiladi, sendan xursand bo'ladi. Ko'ngli ko'tarilib, senga sovg'alar beradi. Sen ham endi sho'rtumshuqlik qilib, yangangdan o'zingni olib qochmagin-da. Axir u seni o'z bag'rida katta qildi, sen bola eding, u senga onalik ko'zi bilan qaradi. Sen ham endi qo'lingdan keladigan yordamingni ayamay, uni xursand qilgin-da.

Shunday qilib, voqea aytganday bo'lib, Ibsol yangasining xonasiga kirgach, qanchadan-qancha tillayu qnmmatbaho narsalar sochilib yotganini ko'rdi. Shayton xotinning bolaga bo'lgan muhabbatini yana ham oshirib yuborgan edi, xotin qaynisiga ustma-ust gavhar va durlar qadalgan ipaklik sarupolar qo'ydi.

Ayol o'zini Ibsolga eng yaqin qilib ko'rsatib, bu harakatiga uni ishontirmoq uchun o'zini vazmin tutib turdi, tiliga erk bermadi, zo'rma-zo'raki bo'lsa ham o'zini tutib turishga urindi. Natijada Ibsol o'zining aldanganiga farosati yetmay, xotinning xatti-harakatini samimiy deb bildi, unga mehribonlik qilayotganligiga shubha qilmadi.

Nnhoyat xotin uni bir necha marta shunday sinab ko'rib, xotirjam bo'lib, ko'ngli joyiga tushgach, xilvatda unga dilidagi sirini ochib

shunday dedi:

- E, Ibsol, tangrining taqdir qilgani bo'ladi, men va sen yaratilishimizdan oldin, men seni sevishim belgilanib qo'yilgan. Tangri taoloning taqdir qilgani shu. Rabb ul-olaminning taqdiridan qochib qutuladigan odam ham, qochadigan joy ham yo'q.

Yangadan bu gaplarni eshitgan Ibsol hayron bo'lganicha, boshini quyi soldi. Qo'lini tangridan berilgan va shu holga tushishga sabab bo'lgan chiroyli yuziga urib, endi nima qilsamikin, deb chuqur o'ygacha cho'mnib qoldi.

Keyin u o'zicha o'ylanib qolib aytdi: "Agar men uning talabiga ochiq-oydin buyunmasam, mendan burungi rostgo'ylarga xotinlar makr qilganidek, bu ham menga makr qilishi mumkin. Agar tangrim va akam ra'yiga qarshi ish qilib, xotinga shnirin so'zlarimni aytsam, amalga oshmaydigan va'da ustidan chiqqan bo'lishimdan qo'rqaman. E, tangrim, menga o'zing yo'l ko'rsat, kushoyish ber!" Xotinning oldiga kirishni Ibsolning ko'ngliga soldik. Shundan keyin xotin oldiga kirish fikri Ibsol xayolidan kechdi. Keyin Ibsol o'ziga-o'zi shunday dedi: "Taqdir shu ekan, endi peshonamda yozilganidan bo'lak hech narsa bo'lmaydi".

Keyin xotinga qarab, tangrining taqdirini kutgin, balki u sendan bu fikrni kaytarar yoki boshqa biror ish qilishga menga yo'l-yo'riq ko'rsatar, dedi. E, tangrim, o'zing kushoyish ber, o'zing yarlaqa. U o'zicha aytdi:

"E, tangrim, qalbimni ixtiyoringga topshirdim, uni o'zing rozi bo'lgan narsaga barqaror qil. Bu dunyo va oxiratda mening yagona vakilimsan, iloyim sen xotinlarni mening ustimdan xo'jayinlik qilishiga yo'l qo'yma!"

Ibsolning yuqorida, tangri taqdirini kutpb tur, deb xotinga aytgan gapi uning o'ylab qo'ygan hiylayu makrini buzgach, xotin birmuncha qizishdi va yig'lamsirab qizargan ko'zlarini undan o'girdi. Xotin qaynisndan arazladi. Ibsol tag'in xotin dod-voy solmasin uchun bu gap bilan o'z muddaosini yashirdi va vaqti-vaqti bilan uning huzuriga kirib turadngan bo'ldi. Buning natijasida xotnn bir qancha vaqt sabr qilib yurib, unga qaytib ginaxonlik qilmay qo'ydi. Bu bilan xotin go'yo Ibsoldan tiyilganday bo'ldi. Ibsol bo'lsa shunday bo'lganidan xursand bo'lib, tangriga shukurlar qilardi.

Ko'p o'tmasdanoq xotin qalbn isyon qilib, Ibsol ishqini uni yana o'ziga tortayotganday bo'ldi. Shu paytda, uning ko'ngli chopib, Ibsol bo'yniga qo'lini tashladi. Shunda Ibsol xotinni jerkib berdi; shu bilan Ibsol xotindan yuz o'girdi, xotin esa o'z ishqida jafoga chekib yurdi. Shu tariqa Ibsol xotindan bir oz uzoqlashdi, xotin esa noqulay holatga tushib katta-katta qasamlar ichdi va shunday dedi:

- Rostini aytsam, seni sinab ko'rmoqchi edim, undan bo'lak maqsadim ham yo'q edi, yigitlikning eng avj paytida bo'la turib qilayotgan taqvoyingning sababini bilgani shunday qilgan edim, natijada, sening chinakam taqvodorligingga ishonдим. Egamga qasam ichib aytamanki, bu koqeadan keyin qulog'ing xafa qiladngan narsani mendan eshitmaydi.

U shu daqiqada bir kunmas-bir kun o'z qasamini buzishini va aldash niyati borligini yashirib turardi. Xotin eriga aytdi:

- Men ukang Ibsolni yigitlar ayni yetilayotgan paytda sinaladigan yo'l bilan sinadim. Uni nomusli ekanini bilsam, singlimni olgin, deb aytmoqchi edim; singlim bilan birga juda ko'p sep ham yubormoqchi edim. Uni sinab ko'rib, ma'qul topdim, endi singlimni unga nikohlab bermoqchiman. Zora bu ish tangrimga xush kelib, doimiy osoyishtalik baxsh etsa.

Keyin xotin o'z singlisiga kengashib aytdi:

- Agar sen oldingga kelgan Ibsoldek mehmoningga sevilib qolsang, menga ham u bilan birga bo'lishga ruxsat berasanmn? Men buni unga aytmayman, o'zi ham sezmaydi. Men uni o'zimga kerak bo'lgani uchungina senga tanlayapman. Agar xohlasang, shunga rozi bo'lasan, xohlamasang buni sendan qaytaraman, yana o'zing bilasan.

Xotin kelib Ibsolga aytdi:

- Singlim uyatchan, hali er ko'rmagan, sen uni xursand qil, oldiga tim-qorong'u kechada kir; to tanishib, bir oy o'tmaguncha, undan bir og'iz ham so'z so'rama.

Xotin darrov snnglisi yotadigan joyga borib yotdi.

Ibsol, hali ko'nglidagi shubhasi ketmasdanoq, qorong'u kechada xotin oldiga kirgan zahoti yanga uni bag'riga bosishdan o'zini tiyolmadi.

U: "Hey",- deb qattiq baqirib yubordi, keyin unga aytdi:

- Agar sen uyatchan qiz bo'lganingda eding, er kishidan oldin talpinmasding, sen boshqa bo'lsang kerak.

Ana shu paytda chaqmoq chaqadigan tizma bulutlardan bir qismini paydo qildik. U bulut chaqmoq chaqib Ibsolga xotin yuzini ko'rsatdi. Ibsol norozi bo'lganicha u yerdan qochib chiqib ketdi.

Ibsol juda dovyurak, pahlavon yigit edi. U biron askar ustiga yurish qilganida uni nesu nobud qilmay qo'ymasdi. U askarlari ko'p lashkar ustiga bostirib kelganida ularni yer bilan yakson qilar, ularni tevarak-atrofga tumtaraqay qilmasdan qo'ymasdi.

Uning o'zini dovyurak, xulqi atvorini raso va o'zini esa yashirin ilmlarga oshno qilgan edik. U o'sha yashirin ilmlarni ochdi.

Ibsol, xotin meni unutar, degan umidda akasi va yangasi dargohini bir qancha vaqt tashlab ketmoqchi bo'ldi, keyin borib akasiga aytdi:

- Senga Mashriqdan tortib Mag'ribgacha bo'lgan o'lkalarni fath qilib, tangri dinini kofirlarga yoysam, nima deysan? Zora, tangrim menga yordam bersa.

Salomon ukasining gapini ma'qul ko'rib, rozi bo'ldi.

Keyin Ibsol Qutb tomondagi o'lkalarga yurish qildi. Undan keyin Sharq tomondagi o'lkalarni bosib olishga jazm etdi. U eng izzatli va eng kuchli xalqni qidirib borib, ular ustidan hukmdorligini o'rnatmoqchi bo'ldi. Keyin Qay o'lkalarga, undan keyin to Chingacha bo'lgan, uning orqa tomonlariga va bu o'lkaga yondash Hind o'lkalarga yurdi. Keyin akasining o'lkalari chegarasiga yetib, akasi egallayolmagan o'lkalarni to Rofidongacha fath qildi. Keyin kemaga minib, dengizga tushadi. Keyin ortga qaytib, kunchiqish tomonga qarab yo'l oladi. Qator orollarga duch keladi va qirg'oq bo'ylab yuradi. Shunday qilib, kunchiqish orollarini olib bo'lgach, yana boshqa tomonga burilib, u yerda ham o'shanday ish qildi. Nihoyat, Humr o'lkalarga yetib, dengizdan quruqlikka chiqadi va u ba'zi guruhlarini birin-ketin qo'lga olish uchun ularning yerlarini axtaradi. Keyin Tayho cho'llarga kirib, to chuqur dengizga borguncha yo'llarni ulardan tozaladi. Ular bilan urishib, podshohlarini asir oldi. Undan keyin sohil bo'ylab chuqur dengizni Ahzomgacha yorib o'tishdan oldin Sabta mamlakatlariga yo'l oldi. U tekisliklarda toshqin bo'lib, undagi mamlakatlarni bosib o'tdi. Keyin shimol dengizlari bo'ylab sharq tomonga uzoq yo'l yurdi va nihoyat, ketgan joyiga qaytib keldi. U o'zicha, endi xotin meni unutar bo'lsa kerak, hatto eslamasa ham kerak, deb o'ylagan edi.

Ibsol Hofiqonga ega qilganimiz Zulqarnayn podshohlarning eng avvalgisi edi. So'ngra Ibsol akasining oldiga yo'l oldi. Ibsol butun ufqni tim-qorong'ulik bosganda akasi oldnga qaytib keldi.

U akasiga aytdi:

- E, aka, senga fath qilib bergan o'lkalarni ko'zimga tuproqdan ilashgan bir gardcha ham emas. Menga uni mutloq qadri yo'q. Men fath qilgan mamlakatlarga ega bo'lgan toifa ahvolidan xabardor bo'lgan kishi yerni va yerda bor narsalarni nazar-pisand qilmaydi.

Xotin Ibsolning safardan qaytib kelganini eshitgach, ustomonlik qilib, quchoqlamoqchi bo'lib unga qulochini yozdi. Bu harakati

This is not registered version of TotalDocConverter
bilan bir yo'l ingiz, qo'ng'ir qilmayotganingizni ko'rib qolmoqchi edi.

Ibsol xotiga aytdi:

- Salom, tangrim seni pok saqlasin, menga yaqinlashma! Men o'sha bilganing Ibsolman. Tangrim rabb ul-olamiyn o'z panohida asrasin, barcha yomon kirdikorlarni o'zi aritsin. Egamga tavakkul qilaman.

Salomon xonadoniga bobilliklardan dushman chiqib, ularning qo'ri qutlarini tugatadigan bo'ldi. Ularning jazosini bermoq uchun akasi Ibsolni o'sha tomonga yubormoqchi bo'lib, unga askar to'plab berdi. Xotin esa Ibsolni unutib, unga yaqinlasha olmasligiga ko'zi yetdi. Natijada xotin Salomon askar boshliqlariga xazinadan pora berib, Ibsolni boshi berk ko'chaga kirgizib, dushmanga ro'para qilishga va o'zlari uning ko'ziga ko'rinmay ketib qolishlarini tayinladi. Ibsol qochib ketishi mumkin bo'lgan har bir yo'l dushman askarlari tomonidan to'sib qo'yilgan bo'lishi kerak edi. Xotin lashkarboshilarga shularni shart qilib qo'ydi; Ibsol askarlarga qarshilik qilmoqchi bo'lsa, ular uni qiyma-qiyma qilib tashlashlari kerak.

Xotin askarlarga nima buyurgan bo'lsa, ular o'shani qildilar.

Agar biz uning boshidan baxtsizlikni ko'tarmaganimizda, qilichlar Ibsolni bo'lib tashlab, sog' qo'ymagan bo'lar edi. Ular Ibsolni qonga bo'yab tashlab ketishdi. U xo'rlanib qoldi. Biz ularni Ibsol ahvolidan bexabar qoldirdik. Keyin ular ustiga juda ham ivitadigan yomonlik yomg'irini yog'dirdik. Unga vahshiy hayvonlarning eng g'amxo'ri bo'lgan - oq kiyikni emizuvchi qilib yubordik. Kiyikning unga mehri kelib, Ibsol og'ziga o'z emchagini soldi va shunday qilib u birmuncha vaqt kiyikni emdi.

Ibsolning akasi dushmanlar tomonidan o'rab olinib, uning hukmronligi kuchsizlanib qolgan va ukasi Ibsolni yo'qotganidan qayg'u-hasratda rangi somon bo'lgan edi.

Ibsol o'ziga kelib, duch kelgan kishidan so'rab-surishtirib boshiga tushgan kulfatlardan ogoh bo'ldi, uni qiyin ahvolga tashlab ketgan askarlar to'dasining ketib qolganini bilgach, juda ham afsuslandi.

- E, tangrim, o'zing menga ko'mak ber. Sen menga mehribonsan, menga bergan ne'matingni sanab tugatolmayman; menga cheksiz mehribonlik qilding! ВѢ”deb tangriga nolidi, uning mehribonligiga shukrona bildirdi.

Shundan keyin u akasining o'lkasi tomon yo'l olib, nihoyat, akasiga dushman qo'llari yetayozganda yurtiga yetib keldi. Shunda Ibsol akasiga mehribonlik qilib:

- Men ukang Ibsolman, sen giriftor bo'lgan baloni sendan daf qilishim va baloga to'g'anoq bo'lishim uchun tangrim meni oldingga yubordi,- dedi.

Salomon Ibsolga parokanda bo'lgan qavmlarni kerakli oziq-ovqatlari bilan yig'ib berdi. Ibsol shahar chekkasiga, askarlar oldiga chiqib aytdi:

- Mana men, xizmingizga tayyor o'sha Ibsolman. Tangrim meni sog'aytirdi. U eng karomatli va rahmdil. U va'dasiga eng sadoqatli va eng vafoli yordamchi va qodir, mehribon va shifo beruvchi. Har qanday maxfiy narsalar ham unga ayondir.

Ibsol odamlarining yuraklari dovlanib, dushmanlar bilan kurashish uchun to'plandilar, dillarida hech bir xavf qolmadi. Dushmanni o'z yerlaridan surib chiqardilar, dushmanlar qochisha boshlagach, ularning ro'paralaridan chiqib qarshilik qildilar, nihoyat, ularni yengib, ularga qattiq shikast yetkazdilar. Hali yetilmagan ekinlarni o'rgandek qirib tashladilar.

Ibsol urushga shunday kirishdiki, o'z qo'li bilan hatto dushman to'dalarining ulug'ini asir qilib oldi. Keyin u Bobilga qarab yurdi. Bobil Ibsolga darhol muyassar bo'ldi. Kon va boyliklarining hammasi Ibsol qo'lga kirdi va hamma tomonlarga Ibsol ovozi tarqab, shonu shavkati zo'raydi. Ibsol sadoqatli, taqvodor va nomusli podshoh edi.

Shunday qilib, Ibsol o'z akasi oldiga qaytib kelsa, xotin uni ochiq-oydin aldash payiga tushib, bu ishga qattiq kirishadi. Nihoyat, Ibsolni alday olmasligiga ko'zi yetgach, xotin endi hind sunbuli dorisidan yoki zarab ul azraqdan Ibsolga ichiringlar, deb oshpaz va dastyorga buyuradi. Ikkovi xotinning buyrug'ini bajo keltirib, unga miqdoridan ko'proq zahar ichirishadi. Bu tadbir sabrli kishilarni ham besabr qildi, ko'pchilikni musibatga cho'mdirdi. Bundan hatto yer titrayozdi; yer yuzidagi har bir jonli narsa Ibsolning halok bo'lishidan g'amu hasratga tushib, hatto Ibsolning o'zi egalik qilgan mamlakatlardagi va qilich bilan qo'lga olgan yurtlardagi kishilar ham hasratlanib, bu ish sodir bo'lganidan g'azabga kelishdi. Chunki Ibsol har bir jonlining nazarida eng olijanob, asl inson, bilim-ma'rifatli ulug' kishi timsoli edi.

Shundan keyin akasi butun qullaridan voz kechdi. U qullarini ozod qilib, ularga xuddi o'z qarindosh-urug'laridek iltifot qildi...

Shunday qilib, tangri Salomonga bir hukm orqali xotining bu qilgan ishini oshkor qildi. Natijada unga xotin, oshpaz, ovqat tashuvchilar tomonidan qilingan maxfiy ishlar ma'lum bo'ldi. Ular zulm qiluvchi kishi uchun bizdagi bor bo'lgan azobu uqubatlarni bilmadilar. Ularning uchalasiga ham Ibsolga ichirilgandek ho'plab zahar ichirildi. Ularning uchalasi ham o'lib, o'z joylaridayoq chirib ketdilar. Bundaylarning har bir qilgan ishlariga yarasha jazoimiz ham bor. Biz kichik va katta gunohlardan bexabar emasmiz.

Aniq hisoblanmagan hech bir narsa yo'q. Qaysi bir do'stimizni huzurimizda bor hukmlardan istagani bilan imtihon qilsak, u sabr qilsa, shunga yarasha mukofotga sazovor bo'ladi. Ozmuncha kishilar o'ldirilmaganmide-yu, ozmunchasi shahid qilinmaganmide?! Har bir jon egasi uchun ma'lum muddat bor. Dahrqa qazo chiqarishdan oldin biz har bir jon uchun ma'lum bir muddat o'lchab berganmiz va buni qazo kitobida yozganmiz. Bu o'sha o'lchab bergan muddatdan ortiqcha bo'lmaydi. Endn rabbingga tavakkul qil! Rabbing sen eshitgan va bilgan kishilardan hech biriga qilmagan in'omlarini senga qilmadimi?! Sen o'rganishing kerak bo'lgan har bir joyda haq nima ekanini ochib ko'rsatdi. Seni haq yo'lga yo'lladi va senga hamma yordamini ko'rsatdi.[1]

В† Birinchi shaxsda nomidan aytilayotgan so'zlar Tangri nomidan gapirilyati.